

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI
XATIRCHI TUMANI STATISTIKA BO‘LIMI**

**XATIRCHI TUMANINING
MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI**

**2024- yil
YANVAR-IYUN**

Qisqartma va shartli belgilar


%.	–	foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	-	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
ming AQSH doll.	–	ming AQSH dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	yo‘lovchi-km	–	yo‘lovchi-kilometr
m.	–	metr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi

MUNDARIJA

Nomi	bet.
XATIRCHI TUMANI XARITASI VA UMUMIY KO'RSATKICHLARI	4-5
I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI	6-8
II. SANOAT	9-12
III. XIZMATLAR	13-17
IV. TRANSPORT SOHASI	18-19
V. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	20-23
VI. INVESTITSİYALAR VA QURILISH	24-28
VII. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	29-31
VIII. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	32-36
IX. DEMOGRAFIK HOLAT	37-40
X.O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	41

Navoiy viloyati Xatirchi tumanning XARITASI

Tashkil topgan yili 1964-yil
Markazi: Yangirobod shaharchasi
Maydoni- 1,42 ming km kv



**Xatirchi tumani to'g'risida
umumiy ma'lumotlar**

Viloyat	Navoiy
Tuman	Xatirchi
Markazi	Yangirabod shaharchasi
Tashkil topgan vaqti	03.12.1964-yil
Umumiy maydoni, <i>ming km²</i>	1,42
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar	1 ta
Mahalla fuqarolari yig'inlari soni	70 ta
Aholi punktlari	169 ta
2024-yil 1-iyul holatidagi doimiy aholi soni, ming kishi	214,7
sh. j. : erkaklar, ming kishi	108,9
ayollar, ming kishi	105,8
Viloyat markazigacha bo'lgan masofa, km	70
Chegaradosh viloyatlar	Samarqand
Chegaradosh tumanlar	Navbahor, Nurota tumanlari

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY- IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2024- yil yanvar-iyun)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>
Sanoat	991,7	106,8	4 635,0	105,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 249,1	103,4	10 512,4	101,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	403,0	69,0	1 884,1	68,3
Qurilish ishlari	309,0	107,9	1 444,4	106,2
Chakana tovar aylanmasi	711,8	105,2	3 327,9	103,6
Xizmatlar, jami	455,6	111,3	2 129,7	109,6

Tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Tashqi savdo aylanmasi</i>	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Saldo</i>
2024- yilning yanvar-iyun oylarida	40 337,9	36 536,4	3 801,5	32 734,9

**Xatirchi tumanining Navoiy viloyati bilan solishtirma
asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-iyun)**

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>	<i>Xatirchi tumanining Navoiy viloyatida tutgan ulushi, %da</i>
Sanoat mahsuloti	991,7	106,8	1,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 249,1	103,4	28,5
Asosiy kapitalga investitsiyalar	403,0	69,0	2,4
Qurilish ishlari	309,0	107,9	7,4
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	56,6	102,0	5,6
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	249,9	104,5	12,0
Chakana tovar aylanmasi	711,8	105,2	12,2
Xizmatlar, jami	455,6	111,3	7,1
Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh doll.)	40 337,9	4,2 m.	5,5
Eksport (ming AQSh doll.)	36 536,4	8,2 m.	7,2
Import (ming AQSH doll.)	3 801,5	74,0	1,7

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

	2024- yil yanvar-iyun, mlrd. so'm		
	O'zbekiston Respublikasi	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani
Sanoat	567 364,3	63 433,0	991,7
fizik xajm indeksi % da	106,4	109,4	106,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	170 297,3	7 882,2	2 249,1
o'sish sur'ati, foizda	103,8	103,6	103,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar	229 334,8	16 890,5	403,0
o'sish sur'ati, foizda	136,6	144,5	69,0
Qurilish ishlari	79 833,9	4 157,6	309,0
o'sish sur'ati, foizda	110,1	127,8	107,9
Chakana tovar aylanmasi	154 618,1	5 814,5	711,8
o'sish sur'ati, foizda	108,4	108,2	105,2
Jami xizmatlar	268 083,6	6 445,7	455,6
o'sish sur'ati, foizda	112,9	112,5	111,3
Eksport, mln. AQSH dollari	12 992,7	508,9	36,5
o'sish sur'ati, foizda	105,5	173,8	8,2 m.
Import, mln. AQSH dollari	18 835,5	224,7	3,8
o'sish sur'ati, foizda	110,6	72,8	74,0


Xatirchi tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulushi, % da (2024- yil yanvar-iyun)

Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish ishlari	Chakana tovar aylanmasi	Jami xizmatlar	Eksport	Import
54,7	98,8	87,6	91,3	97,7	80,9	7,2	51,3

II.SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Xatirchi tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 991,7 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik xajm indeksi 106,8 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsuloti hajmi va fizik hajm indeksi



Tumanda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	2024- yil yanvar-iyun
Sanoat korxonalari, jami	287
- Yirik	2
- kichik korxona va mikrofirmalar	285
- sh.j. xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar	6

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	mlrd.so'm	4,09	11,97
Ishlab chiqaradigan sanoat	mlrd.so'm	412,5	979,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	mlrd.so'm	0,01	0,03
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	mlrd.so'm	-	0,1




Sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi (2024- yil yanvar-iyun)

	Sanoat mahsuloti hajmi		tarmoq korxonalari		hududiy korxonalar	
	Hajm, mlrd. so'm	o'sish sur'ati % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da
Navoiy viloyati	63 433,0	109,4	54 740,8	86,3	8 692,2	13,7
Xatirchi tumani	991,7	106,8	478,9	48,3	512,8	51,7

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borilishi, o'z navbatida kichik biznes sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining doimiy o'sib borishiga sabab bo'lmoqda.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 542,3 mlrd. so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 54,7 % ni tashkil etgan.




Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Xatirchi tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tumandagi sanoat korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 991,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki fizik xajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi, shuning bilan birga

nodavlat sektorida 991,7 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va oʻsish surʼatlari

2024-yil yanvar-iyun oylarida tuman boʻyicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 635,0 ming soʻmni va oʻsish surʼati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, (ming soʻm)



III. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat koʻrsatish sohasining rolini oshirishga katta taʼsir koʻrsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2024-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 455,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi.

Xatirchi tumanida jami xizmatlarning oʻsish surʼatlarining dinamikasi, % da



**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning toifalari (birlik)**

	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun
Xizmatlar sohasi korxonalari, jami	1 917	1 853
- yirik	289	291
- kichik korxona va mikrofirmalar	1 628	1 562

**Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan
korxonalar soni, birlik**

	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun
Xizmatlar sohasi korxonalari, jami	103	49
- yirik	4	2
- kichik korxona va mikrofirmalar	99	47

**Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi
(2024- yil yanvar-iyun)**

	Jami			Aholi jon boshiga	
	<i>mlrd.so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmiga nisbatan foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2022- yil yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>
Viloyat bo'yicha:	6 445,7	112,5	100,0	5 967,7	110,5
Xatirchi tumani	455,6	111,3	7,1	2 129,7	109,6

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlari ishlab chiqarish**
(2024- yil yanvar-iyun)

	Mrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Xizmatlar – jami	455,6	111,3	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	34,9	115,4	7,7
moliyaviy xizmatlar	44,5	127,3	9,8
transport xizmatlari	94,5	114,2	20,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	88,1	109,4	19,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	18,2	104,7	4,0
savdo xizmatlari	180,0	107,6	39,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	7,9	109,0	1,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	7,7	109,6	1,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11,6	107,4	2,5
ijara xizmatlari	10,1	100,0	2,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	9,8	107,3	2,1
shaxsiy xizmatlar	22,8	107,8	5,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,3	115,8	0,7
boshqa xizmatlar	10,3	103,1	2,3


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2024- yil yanvar-iyun)**



Xatirchi tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (127,3 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (115,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,4 %)da qayd etildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari yuqori bo'lmagan sohalar ijara xizmatlari (100,0 %) va boshqa xizmatlar (103,1 %) da qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2024- yil yanvar-iyun)



Xatirchi tumani bo'yicha yuqori ulush savdo xizmatlari (39,5 %), transport xizmatlari (20,7 %) va moliyaviy xizmatlar (9,8 %) da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush ta'lim sohasidagi xizmatlar (1,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,7 %) da qayd etildi.

IV. TRANSPORT SOHASI

Yuk tashish. 2024-yil yanvar-iyun oylarida transport turlari tomonidan 2,0 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi transport turlari tomonidan 56,6 mln.tn-km. ni tashkil qildi va 102,0 foizni tashkil etdi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari


	2024-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	2,0	104,1
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	2,0	104,1
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	56,6	102,0
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	56,6	102,0

Yo'lovchi tashish. 2024-yil yanvar-iyunda transport turlari tomonidan 8,8 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 104,5 foizni tashkil etib, 249,9 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2024-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	8,8	105,0
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	8,8	105,0
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	249,9	104,5
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	249,9	104,5

Yuk tashish va yuk aylanmasi hamda transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



V. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Xatirchi tumanida 2024-yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 3 287 tani tashkil qilib, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 2 443 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 74,3 foizini tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdoda 1 370 ta (42,7 foizi), sanoat 482 ta (14,7 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 217 ta (6,6 foizi) va qurilish 105 ta (3,2 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

	<i>Ro'yxatdan o'tgan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	3 287	100,0	2 443	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	383	11,7	233	9,5
sanoat	482	14,7	287	11,7
qurilish	105	3,2	70	2,9
savdo	1 370	41,7	1 099	45,0
tashish va saqlash	82	2,5	64	2,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	217	6,6	155	6,3
axborot va aloqa	45	1,4	33	1,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	1,3	39	1,6
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	560	16,9	463	19,0

2024-yil 1-iyul holatiga 2 152 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 787 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 840 ta, oilaviy korxonalar - 505 ta va boshqa tijorat korxonalari - 20 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi (birlikda)



Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Navoiy viloyatida 2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatga olingan chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 338 tani tashkil qilib, Xatirchi tumanida 18 tani tashkil etadi, shundan faoliyat ko'rsatayotgan 14 tani tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Xatirchi tumanida jami 650 ta oilaviy korxona ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 7 taga ko'payganligi kuzatilgan, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 505 tani tashkil etadi.

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	01.07.2023-y	01.07.2024-y	01.07.2023-y	01.07.2024-y
Navoiy viloyati	4 508	4 635	3 529	3 261
Xatirchi tumani	650	657	526	505
Navoiy viloyatidagi ulushi, foizda	14,4	14,2	14,9	15,5

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.07.2023-y		01.07.2024-y	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	275	100,0	150	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	68	24,7	27	18,0
sanoat	61	22,2	37	24,7
qurilish	8	2,9	4	2,7
savdo	77	28,0	52	34,7
tashish va saqlash	8	2,9	4	2,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	5,5	12	8,0
axborot va aloqa	9	3,3	3	2,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	1,8	4	2,7
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	24	8,7	7	4,5

2024-yil yanvar-iyun oylarida jami 119 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 119 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 100,0 foizi) kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatga olingan kichik biznes sub'ektlari soni 2 976 tani tashkil etib, shundan 2 146 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2024-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari soni 148 tani tashkil etadi. O'z navbatida faoliyatini tugatgan kichik biznes sub'ektlari soni 119 tani tashkil etmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi savdo 1 369 ta (46,0 foizi), sanoat 480 ta (16,1 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 379 ta (12,7 foizi) hamda qurilish 104 ta (3,5 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.


Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (2024- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan foizda	birlik	yakunga nisbatan foizda
Jami	2 976	100,0	2 146	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	379	12,7	230	10,7
sanoat	480	16,1	285	13,3
qurilish	104	3,5	69	3,2
savdo	1 369	46,0	1 098	51,2
tashish va saqlash	82	2,8	64	3,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	217	7,3	155	7,2
axborot va aloqa	44	1,5	32	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	40	1,3	36	1,7
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	261	8,8	177	8,2

VI. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2024-yilning yanvar-iyun oylarida 403,0 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilib, oʻsish surʻati 2023-yilning mos davriga nisbatan 69,0 % ni tashkil etdi.


Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2023-yilning mos davriga nisbatan 32,4 % yoki 33,7 mlrd. soʻm (jami investitsiyalar hajmining 8,4 %) oʻzlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 369,3 mlrd. soʻm yoki 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 77,4 % (jami investitsiyalardagi ulushi 91,6 %) ni tashkil etdi.




**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga
o'zlashtirilgan investitsiyalar**
(2024- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati %, %	hajmga nisbatan % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	403,0	69,0	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	33,7	32,4	8,4
byudjet mablag'idan	33,7	40,2	8,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar:	369,3	77,4	91,6
Korxona o'z mablag'lari	33,5	85,3	8,3
aholi mablag'lari	189,5	99,5	47,0
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	6,7	6,9	1,7
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	139,6	90,8	34,6


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2024- yil yanvar-iyun)




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)



Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	Jami	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami, mlrd. so‘m	403,0	100,0
qurilish-montaj ishlari	180,5	44,8
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	176,3	43,7
boshqa xarajatlar	46,2	11,5

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi % da




Qurilish ishlari faoliyati

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Xatirchi tumanda jami 309,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari tarkibi, ulushi %da (2024- yil yanvar-iyun oylari)



Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar ulushi.

Qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻm (2024- yil yanvar-iyun oylari)

Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar hajmi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

VII.ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 711,8 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasida 16,1 mlrd. so'mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 2,3 foizni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 695,7 mlrd. so'mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 97,7 foizni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlar hajmining 75,2 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 10,6 foizga teng bo'ldi.


Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi *(2024- yilning yanvar-iyun holatiga, foizda)*




Chakana tovar aylanmasi

	Jami		Aholi jon boshiga	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan foizda</i>
Navoiy viloyati	5 814,5	108,2	5 383,3	106,2
Xatirchi tumani	711,8	105,2	3 327,9	103,6

Xatirchi tumanining ichki va tashqi savdo ko'rsatkichlarining Navoiy viloyatida tutgan ulushi, % da



Xatirchi tumanida tashqi savdoda eksport va importni ulushi, foizda




Xatirchi tumanida tashqi savdoning 9,4 foizni import tashkil qiladi. Import yanvar-iyun oylarida 3,8 mln. AQSH dollarga teng bo‘ldi.

Tashqi savdo aylanmasi (2024- yilning yanvar-iyun)

(mln. AQSH dollari)

	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Saldo
Navoiy viloyati	733,6	508,9	224,7	284,2
Xatirchi tumani	40,3	36,5	3,8	32,7

Xatirchi tumanida tashqi savdoda eksport va import hajmi (mln. AQSH dollar)



Xatirchi tumanining tashqi savdo aylanmasi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 40,3 mln. AQSH dollarni, jumladan eksport 36,5 mln. AQSH dollarni, import 3,8 mln. AQSH dollarni, shuningdek tashqi savdo saldosi 32,7 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

VIII. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 249,1 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan (103,4 %) ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 2 130,8 mlrd. so‘mni (103,4 %), o‘rmon xo‘jaligi 109,5 mlrd. so‘mni (102,8 %), baliqchilik xo‘jaligi 8,8 mlrd. so‘mni (126,1) tashkil qildi. Viloyat qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Xatirchi tumanni ulushi 28,5 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur‘atlari (2024- yilning yanvar-iyunida)

	<i>Mrld. so‘m</i>	<i>o‘sish sura‘ti, %</i>
Navoiy viloyati	7 882,2	103,6
Xatirchi tuman	2 249,1	103,4

Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 79,3 foizi dehqon va tomarqa xo‘jaliklariga, 18,6 foizi fermer xo‘jaliklariga, 2,1 foizi qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



DEHQONCHILIK




2024-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 636,2 mlrd. soʻmni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan (102,4) foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 30,0 foizni tashkil qildi.

Hosilni yigʻib olish. 2023-yil yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan jami don 62 601,3 tonna (102,3 foizga), kartoshka 23 816,5 tonna (101,7 foizga), sabzavot 20 676,0 tonna (102,6 foizga), poliz 3 830,7 tonna (100,5 foizga), meva va rizavorlar 13 647,9 tonna (103,3 foizga), uzum 1 668,0 (104,5 foizga) etishtirildi.

Xoʻjalik toifalari boʻyicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2024- yilning yanvar-iyun)

	Fermer xoʻjaliklari		Dehqon va tomarqa xoʻjaliklari		Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	oʻsish surʼati, foizda	tonna	oʻsish surʼati, foizda	tonna	oʻsish surʼati, foizda
Jami don	56 283,2	101,2	3 876,7	97,9	2 441,4	153,0
Kartoshka	3 031,0	104,5	20 756,0	101,2	29,5	2,7 m.
Sabzavotlar	2 221,8	115,9	18 225,2	100,4	229,0	2,5 m.
Poliz	414,7	102,9	3 416,0	100,2	-	-
Mevalar va rezavorlar	3 558,0	112,7	9 965,0	100,2	124,9	124,3
Uzum	1 632,0	104,4	30,0	103,4	6,0	120,0

2024- yanvar-iyun oylarida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi, foizda



CHORVACHILIK



Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘shishiga, ichki iste‘mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 1 481,7 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil qildi. Yetishtirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 70,0 foizni tashkil etdi.

2024-yilning 1-iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 147 683 boshga (103,3 foizni), shu jumladan sigirlar 72 902 boshga (102,1 foizni), qo‘y va echkilar 253 122 boshga (106,0 foizni), otlar 2 137 boshga (101,4 foizni), parrandalar 1 042 181 boshga (104,8 foizni) tashkil qildi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni
(2024- yil 1-iyul holatiga)

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>bosh</i>	<i>o‘sish sur‘ati, foizda</i>	<i>bosh</i>	<i>o‘sish sur‘ati, foizda</i>	<i>bosh</i>	<i>o‘sish sur‘ati, foizda</i>	<i>bosh</i>	<i>o‘sish sur‘ati, foizda</i>
Yirik shoxli qoramollar	147 683	103,3	8 307	107,9	138 312	102,9	1 064	131,0
<i>shu jumladan: sigirlar</i>	72 902	102,1	3 353	101,9	69 044	102,0	505	119,7
Qo‘ylar va echkilar	253 122	106,0	31 222	104,7	216 667	105,0	5 233	196,4
Otlar	2 137	101,4	280	105,3	1 845	100,4	12	2,4 m.
Parrandalar	1 042 181	104,8	89 265	102,0	494 290	102,2	458 626	108,3

Xo‘jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi, foiz hisobida




■ Fermer xo‘jaliklari
■ Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
■ Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Umumiy bosh songa nisbatan dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 93,7 foizni, fermer xo'jaliklarida 5,6 foizni, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 0,7 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 94,7 foizni, qo'y va echkilar 85,6 otlar 86,3 foizni, parrandalar 47,4 foizni tashkil qildi.

**Xo'jaliklar toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik
mahsulotlarini yetishtirish
(2024- yilning yanvar-iyun oylari)**

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan</i>					
			<i>Fermer xo'jaliklari</i>		<i>Dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Go'sht tirik vaznda, tonna	19 922,6	103,8	743,3	118,6	19 011,0	103,2	168,3	117,4
Sut, tonna	81 289,1	103,3	3 215,8	120,2	77 455,0	102,5	618,3	132,7
Tuxum, ming dona	63 646,4	104,1	4 693,6	119,9	45 289,6	100,4	13 663,2	112,7
Ovlangan baliqlar, tonna	404,8	126,2	85,3	112,2	20,2	101,0	299,3	133,1

**Xo'jaliklar toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik
mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi, foiz hisobida**



IX. DEMOGRAFIK HOLAT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning 1-iyul holatiga Xatirchi tumanida doimiy aholi soni 214,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 1,5 ming kishiga yoki 0,7 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

(2024- yil 1-iyul holatiga, ming kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Navoiy viloyati	1 084,9	549,7	535,2
Xatirchi tumani	214,7	108,9	105,8

Xatirchi tumanining doimiy aholi sonida erkak va ayolning ulushi (2024- yil 1-iyul holatiga, foizda)



Shuningdek, 2024-yilning 1-iyul holatiga Xatirchi tumanida 50,7 % erkaklar va 49,3 % ni ayollar tashkil etgan. Demak, Xatirchi tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko‘proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Aholining tabiiy harakati
(yanvar-iyun oylari)

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 aholiga, nisbatan</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil¹⁾</i>	<i>o‘sish, kamayish</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil¹⁾</i>
Tug‘ilganlar	2 451	2 441	-10	23,5	22,9
O‘lganlar	338	460	122	3,2	4,3
Tabiiy o‘sish	2 113	1 981	-132	20,3	18,6
Nikohlar	550	471	-79	5,3	4,4
Ajralishlar	137	115	-22	1,3	1,1


Tug‘ilish darajasi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 2 441 kishini tashkil qildi va (2023-yilning shu davriga 2 451 kishi) nisbatan 10 taga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 22,9 promilleni tashkil qildi va (2023-yilning shu davriga 23,5 promille) nisbatan 0,6 promillega kamaydi.

O‘lim darajasi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni 460 kishini tashkil qildi va (2023-yilning shu davriga 338 kishi) nisbatan 122 taga o‘limlar soni ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi va (2023-yil yanvar-iyunga 3,2 promille) nisbatan 1,1 promillega oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Tabiiy o‘sish. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2024-yilning yanvar-iyun holatiga tabiiy o‘sish 1 981 kishini tashkil qildi va (2023-yilning shu davri 2 113 kishi)ga nisbatan 132 kishiga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.


¹⁾ dastlabki ma’lumot

Aholining tabiiy harakati (yanvar-iyun oylarida, kishi, birlikda)




Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-iyunida FHDYo organlarida 471 ta nikohlar va 115 ta ajralishlar ro'yxatga olindi, ming aholiga nisbatan 4,4 promillega nikoh (2023-yilning tegishli davrida 5,3 promillega) va 1,1 promillega ajralishlar (2023-yilning tegishli davrida 1,3 promillega) to'g'ri keladi.

Xatirchi tumani bo'yicha tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar bo'yicha ma'lumot (yanvar-iyun holatiga, birlikda)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Xatirchi tumani bo'yicha ko'chib kelganlar soni 304 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 838 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 534 kishiga (2023- yilning shu davrida qoldig'i minus 416 kishi) teng bo'ldi.

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(yanvar-iyun oylarida, kishi, birlikda)



Xatirchi tumanining ijtimoiy ko'rsatkichlari
(2024- yil 1-iyul holatiga)

	Soni		Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Doimiy aholi soni, (ming kishi)	211,5	214,7	x	x
Aholining tabiiy o'sishi (kishi)	2 113	1 981	20,3	18,6
Tug'ilganlar (kishi)	2451	2441	23,5	22,9
Vafot etganlar (kishi)	338	460	3,2	4,3
Tuzilgan nikohlar (birlik)	550	471	5,3	4,4
Nikoxdan ajralishlar (birlik)	137	115	1,3	1,1
Ko'chib kelganlar (kishi)	246	304	2,4	2,9
Ko'chib ketganlar (kishi)	662	838	6,3	7,9

X. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik ish haqi. 2024-yil yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 601,9 ming so‘mni tashkil etib, Xatirchi tumanida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 964,7 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi *(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)*

ming so‘m

	O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi	
	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>
Navoiy viloyati	5 682,8	6 601,9
Xatirchi tumani	2 567,6	2 964,7

**XATIRCHI TUMANINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2024- yil yanvar-iyun**

Nashrga mas'ul:
Xatirchi tumani statistika bo'limi
tel. (79) 544-01-48

Buyurtma raqami №1

2024 y. Tiraj 9 nusxa

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Navoiy sh. A. Temur ko'chas,i 4 uy
WWW.NAVSTAT.UZ

